



**TAYANCH – HARAKATI A’ZOLARI FALAJLANGAN BOLALARDA NUTQ
RIVOJLANISHINING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.**

*Andijon davlat pedagogika instituti,
Maxsus pedagogika kafedrasida assistent-o’qituvchisi
Vaziraxon Axmedova Tursunbayevna
ORCID ID 009-003-6218-0270*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233382>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tayanch – harakati a’zolari falajlangan bolalarda nutq rivojlanishining ilmiy-pedagogik asoslari, bola nutqi rivojlanishining psixologik asoslari, dizartriya nutq kamchiligining falajlanish bilan bog’liq xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar. Nutq, dizartriya, falajlanish, dinamik lokalizatsiya, psixik funksiyalar, markaziy nutq apparati, funksional sistema, talaffuz.

Nutq inson uchun bilish, faollikni rivojlantirish, atrofdagilar kishilar bilan muloqotda bo’lishning asosiy vositasidir. Inson shaxsining kamol topishida nutq juda katta ahamiyatga ega. Bolalarning barcha nutq sistemalarini rivojlantirish bo’yicha olib boriladigan ishlarda maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning lug’at so’z boyligi grammatik tizimi shakllarini ko’proq egallashlarida va so’zlarni to’g’ri talaffuz etishda ahamiyat beriladi.

Atoqli psixolog olim L.S. Vygotskiy ruhiy jarayonlardan biri bo’lgan nutqni shunday ta’riflagan. “Nutq xabar, ijtimoiy aloqa, atrofdagilarga ta’sir funksiyasini bajarish bilan birga inson fikrini shakllantiradigan usullardan biridir”.²

Nutqiy nuqson deganda, ma’lum nutq buzilishining nutqiy va nutqsiz alomatlar hamda ularning bog’lanish xarakteri majmui (tarkibi) tushuniladi. Nutqiy nuqson tuzilishida birlamchi, yetakchi buzilish va ikkilamchi nuqsonlar ajratib ko’rsatiladi. Bu buzilishlar bir-birlari bilan sabab-oqibat munosabatida bo’ladi. Nutqiy nuqsonning turlicha tuzilishi birlamchi va ikkilamchi alomatlarining alohida bog’lanishlarida o’z aksini topadi va biror maqsadga qaratilgan logopedik ta’sir etishning o’ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a’zolar sistemasi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o’ynaydi.

XX asrning boshlaridayoq nutq funksiyasining miyadagi maxsus “alohida nutq markazlari”ning mavjudligi bilan bog’langan nuqtai nazar keng yoyilgan edi. I. P. Pavlov bu qarashga yangi yo’nalish berdi. U bosh miya qobig’ining nutq funksiyalari lokalizatsiyasi murakkab bo’libgina qolmay, balki o’zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ham isbotlab berdi va uni “dinamik lokalizatsiya” deb atadi. [1]

Zamonaviy neyrofiziologiya nuqtai nazarida nutq buzilishlari tahlili, shuningdek nutq rivojlanishini norma va patologiyada o’rganish, organizm funksional sistemasi shakllanishining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi (sistemagenez).

Funksional sistema haqidagi ta’limotni, miyaning turli strukturalarini keng funksional birlashishi sifatida so’ngi natijalari olishi asosida P. K. Anoxin ishlab chiqdi. Bu yangi metodologik nuqtai nazardan nutq rivojlanishini norma va potologiya sharoitida ko’rib chiqish imkoniyati mavjuddir. [3]

Bizning fikrimizcha, bola hayotining birinchi yilida yetakchi faoliyat shakli uni kattalar bilan xissiy ijobiy munosabati hisoblanadi. Bu dastlabki nutqiy muloqotning shakllanishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Faqat uning asosida bolada kattalar bilan muloqatga talab shakllanadi, ovoz reaksiyalari ko’rinishida uning dastlabki shart – sharoitlari rivojlanadi, ularning ifodaliligi, sensor funksiyalari, ya’ni kommunikativ bilish kompleksi rivojlanadi. Bu bolaning keyingi psixik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Faoliyatning bunday turi zaif rivojlanuvchi bolalarda (masalan, kasalxonada uzoq muddat yotishni talab qiladigan kasallik yoki atrofdagilar bilan muloqatning kamligi) nutq rivojlanishining

² Вygotsкий Л.С Проблемм дефектологии .-Москва: Про 1995 г



dastlabki shart – sharoiti yetarli shakllanmaydi va bunday bola hayotining dastlabki yillarida nutq rivojlanishidan orqada qolishi mumkin. [3]

Kishining nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining harakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Nutq talaffuzi mexanizmi harakatini boshqarib turuvchi organ nutq apparatidir. Nutq apparati o'zaro chambarchas bog'langan markaziy va pereferik nutq apparatidan iboratdir [2]. Markaziy nutq apparati bosh miyada joylashgan bo'lib, u bosh miya qobig'idan, qobiq osti tugunlaridan o'tkazuvchi yo'llar, uzoqdan (uzunchoq miyada) yadrolar va ovoz, nafas va artikulyatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi. Mana shu organlar mexanizmini buzilishi nutq buzilishlarini keltirib chiqaradi. Bolalarda uchraydigan dizartriya – nutq nuqsonida nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomondan kamchiliklar kuzatildi.

Dizartriyada nutq a'zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanish natijasida nutq tovushlari artukulyatsiyasi qiyinlashadi. SHuningdek ovoz, nafas buzilishlari nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi. [2]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dizartriya nutq nuqsonida miyaning turli joylarida jarohatlanishlar kuzatiladi. Xususan, miya yarimsharining chap va o'ng tomonida, yetti tuxumsimon markazdan o'tuvchi sistemada, asab tugunchalari qobig'ida, uzunchoq miyada kuzatilishi mumkin. Dizartriyaning turlarida nutqiy buzilishlar bilan birgalikda nutqiy bo'lmagan kamchiliklar ham uchraydi. Bu bul'bar va psevdobul'bar dizartriyada umumiy va mayda qul muskullari motorikasining buzilishlari ko'rinishida nomoyon bo'ladi.

Barcha nutq nuqsonlarida nutqning to'liq rivojlanmasligi ikkilamchi nutq kamchiligi sifatida uchraydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. SHomaxmudova R.SH, Tulaganova D “Maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar.” T-2009
2. Выготский Л.С Мьрпленie i rechь.M.Vlados.2000
3. Jukova O.S “Razvitiya i obucheniya doshkolьnika” Moskva-2006
4. <http://www.tdpu.uz>